

## **BOLALARDA DIQQAT YETISHMOVCHILIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMIDA UYQU BUZILISHLARINING XUSUSIYATLARI**

**Shoyzoqova Dildora Akbar qizi**  
**Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti**  
**Bolalar nevrologiyasi yo'nalishi 1-kurs magistri**  
**Saidxodjayeva Saida Nabiyevena**  
**Asab kasalliklari, bolalar asab kasalliklari**  
**va tibbiy genetika kafedrasi dotsenti, t.f.d.**

**Kirish.** Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi (DYGS)-eng keng tarqalgan psixonevrologik buzilish hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha 3 % dan 7 % gacha bolalar bu patologiyadan aziyat chekadi. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi diqqatni jamlay olmaslik, giperaktivlik va impulsivlik simptomlari bilan tavsiflanadi. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi klinikasining muhim simptomlaridan biri bu-uyqu buzilishi bemorlarda uyquga ketishning qiyinligi, uyqu vaqtining qisqarishi ko'rinishida kuzatiladi.

**Tadqiqot maqsadi.** Bolalarda diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromida uyqu buzilishlarining klinik xususiyatlarini va neyrofiziologiyasini o'rganish.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqot Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti klinik bazasida 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 20 nafar har ikki jinsdagi diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi tashxisi qo'yilgan bolalarda olib borildi. Tadqiqot davomida bolalarning klinik-nevrologik statusi, uyquga ketish vaqti, uyqu davomiyligi va uyqu sifati o'rganildi.

**Tadqiqot natijalari.** Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi bilan og'rikan bolalarning 75%ida turli shakldagi uyqu buzilishlari kuzatildi. Jumladan, 40% bolalarda uyquga ketishda qiyinchilik, 40%ida kechasi tez-tez uyg'onish va 20%ida uyqu davomiyligi qisqa ekanligi qayd etildi. Uyqu buzilishlarining og'irligi Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi simptomlarining zo'rayishiga, ayniqsa diqqat jamlashdagi muammolar va hissiy barqarorlikning buzilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekani aniqlandi.

**Xulosa.** Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi bilan og'rikan bolalarda uyqu buzilishlari keng tarqalgan bo'lib, sindromning umumiy og'irligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalarning kognitiv faoliyatini, diqqatini va xulq-atvorini yanada og'irlashtiradi. Uyqu holatining tahlili ushbu bolalarda kompleks yondashuvni talab qiladi. Vaqtida tashxis qo'yish va tuzatish choralari simptomlarni yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega